



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Inson kapitali iqtisodiyoti
Economics of human capital
Экономика человеческого
капитала



MINTAQANING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Dinora Yusubboyeva

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА РЕГИОНА

Динора Юсуббоева

MODERN TRENDS IN THE USE OF HUMAN CAPITAL FOR SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH OF THE REGION

Dinora Yusubboyeva

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘shini ta’minlashda inson kapitalidan samarali foydalanishning zamonaviy tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, uning innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyati hamda hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, raqamlashtirish, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimi, ilmiy salohiyat va mehnat bozori transformatsiyasi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida baholangan. Maqolada rivojlangan davlatlar tajribasi asosida inson kapitalidan foydalanishning samarali mexanizmlari yoritilib, O‘zbekiston hududlari, xususan, mintaqalar iqtisodiyotida ushbu yo‘nalishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, barqaror iqtisodiy o‘sh, mintaqaviy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, mehnat bozori, ta’lim sifati, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы современные тенденции эффективного использования человеческого капитала в обеспечении устойчивого экономического роста региона. В исследовании изучены роль человеческого капитала в экономическом развитии, его значение в условиях инновационной экономики, а также влияние на повышение конкурентоспособности территорий. Кроме того, цифровизация, качество образования, система здравоохранения, научный потенциал и трансформация рынка труда оценены как основные факторы развития человеческого капитала. На основе опыта развитых стран в статье раскрыты эффективные механизмы использования человеческого капитала, а также разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию данного направления в экономике регионов Узбекистана.

Ключевые слова: человеческий капитал, устойчивый экономический рост, региональное развитие, инновационная экономика, цифровая трансформация, рынок труда, качество образования, экономическая эффективность.

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes modern trends in the effective use of human capital in ensuring sustainable economic growth of the region. The study examines the role of human capital in economic development, its importance in the context of an innovative economy, and its impact on increasing regional competitiveness. In addition, digitalization, quality of education, healthcare system, scientific potential, and labor market transformation are evaluated as the main factors in the development of human capital. Based on the experience of developed countries, the article highlights effective mechanisms for the use of human capital and develops scientific proposals and recommendations for improving this area in the economy of the regions of Uzbekistan.



Keywords: human capital, sustainable economic growth, regional development, innovative economy, digital transformation, labor market, quality of education, economic efficiency.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi iqtisodiy o'sish omillariga bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy iqtisodiy nazariyalarda ishlab chiqarishning asosiy omillari sifatida yer, kapital va mehnat resurslari ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, zamonaviy rivojlanish konsepsiyalarida inson kapitali iqtisodiy taraqqiyotning strategik resursi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bilimlar iqtisodiyoti shakllanayotgan hozirgi davrda insonning bilim darajasi, kasbiy malakasi, intellektual salohiyati, innovatsion fikrlashi va raqamli ko'nikmalari

mintaqalarning iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sishning barqarorligi ko'p jihatdan inson kapitalining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, innovatsiyalar va kasbiy tayyorgarlik tizimiga kiritilgan mablag'lar — uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida ham inson kapitalining sifati yuqori bo'lgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi va aholi farovonligi darajasi yuqori ekanligi qayd etiladi.

1-jadval⁴²

Inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillari (O'zbekiston bo'yicha)

№	Ko'rsatkichlar	Mazmuni	Iqtisodiy o'sishga ta'siri
1	Ta'lim darajasi	Oliy va professional ta'lim bilan qamrov darajasi	Malakali kadrlar soni oshadi, mehnat unumdorligi ortadi
2	Bandlik darajasi	Iqtisodiy faol axoli ulushi	Ishlab chiqarish hajmi va aholi daromadlari ko'payadi
3	Sog'liqni saqlash sifati	Tibbiy xizmatlar va shifokorlar soni	Mehnat resurslarining samaradorligi oshadi
4	Raqamli ko'nikmalar	AKT va raqamli texnologiyalarni bilish darajasi	Innovatsion faoliyat va raqamli iqtisodiyot rivojlanadi
5	Ilmiy salohiyat	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar darajasi	Yangi texnologiyalar va yuqori qo'shimcha qiymat yaratiladi
6	Kasbiy tayyorgarlik	Zamonaviy kasblar bo'yicha malaka	Mehnat bozori talabiga mos kadrlar shakllanadi
7	Aholining turmush darajasi	Daromad va ijtimoiy himoya holati	Iste'mol va iqtisodiy faollik oshadi

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, inson kapitalining tarkibiy omillari mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi hamda raqamli ko'nikmalarning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitalining mazmuni tobora kengayib bormoqda. Avvallari inson kapitali asosan ta'lim va mehnat ko'nikmalari bilan bog'liq holda talqin qilingan bo'lsa, bugungi kunda unga kreativ fikrlash, innovatsion faoliyat, axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, tadbirkorlik kompetensiyalari hamda ijtimoiy moslashuvchanlik kabi omillar ham kiritilmoqda. Bu esa inson kapitalining iqtisodiy tizimdagi rolini yanada kuchaytirib, uni hududiy rivojlanishning asosiy drayveriga aylantirmoqda.

Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida

yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, "big data", elektron tijorat va raqamli boshqaruv tizimlari mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga ega kadrlarni talab qilmoqda. Natijada yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega inson resurslari iqtisodiy o'sishning eng muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki strategik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda.

Mintaqalar iqtisodiyotida inson kapitalining o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsion jozibadorligi va ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan mavjud inson resurslarining sifati bilan belgilanadi. Malakali kadrlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ayrim hududlarda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi, innovatsion faollikning sustligi va mehnat unumdorligining pastligiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasida ta'lim sifati, bandlik darajasi va ilmiy salohiyat bo'yicha tafovutlarning mavjudligi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.

⁴² muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan
<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

**O'zbekiston hududlari kesimida inson kapitalining asosiy ko'rsatkichlari
(2024-yil)**

Hududlar	Oliy ta'lim bilan qamrov (%)	Bandlik darajasi (%)	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	Internetdan foydalanuvchilar ulushi (%)
Toshkent shahri	48,6	74,2	8 950	92,4
Toshkent viloyati	32,4	71,5	6 870	81,3
Xorazm viloyati	28,1	69,8	5 240	73,6
Samarqand viloyati	30,7	70,1	5 680	75,2
Farg'ona viloyati	29,5	68,9	5 410	74,1
Qashqadaryo viloyati	26,8	67,4	5 120	69,8
Respublikada o'rtacha	31,9	70,3	6 180	77,5

2-jadval ma'lumotlari hududlar kesimida inson kapitalining rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Xususan, Toshkent shahrida oliy ta'lim bilan qamrov, o'rtacha ish haqi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi. Bu esa mazkur hududning iqtisodiy va innovatsion salohiyati yuqoriligini ifodalaydi. Shu bilan birga, ayrim viloyatlarda inson kapitali ko'rsatkichlarining nisbatan pastligi hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada mintaqalarda ta'lim sifati, zamonaviy kasbiy tayyorgarlik hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, kasb-hunar ta'limini takomillashtirish, yoshlar bandligini ta'minlash hamda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, xorijiy universitetlar filiallarining tashkil etilishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining joriy qilinishi hamda raqamli ta'lim platformalarining rivojlanishi inson kapitalining sifat jihatdan takomillashuviga xizmat qilmoqda. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanishi mazkur sohaning davlat iqtisodiy siyosatidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa mintaqalarda iqtisodiy o'sishni

ta'minlashda inson kapitalidan samarali foydalanish masalasining ilmiy-amaliy dolzarbligini oshirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini cheklayotgan ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, hududlar o'rtasida ta'lim sifati va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi bo'yicha tafovutlarning mavjudligi, yoshlarning zamonaviy kasbiy va raqamli kompetensiyalar bilan to'liq ta'minlanmaganligi hamda ilmiy salohiyatdan foydalanish samaradorligining nisbatan pastligi inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sir darajasini kamaytirmoqda. Ayniqsa, ayrim mintaqalarda malakali mutaxassislar yetishmovchiligi ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion faollikning pasayishiga olib kelmoqda.

Mazkur maqolada mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda inson kapitalidan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida inson kapitalining iqtisodiy mazmuni, uning hududiy rivojlanishga ta'siri, zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida inson kapitalidan samarali foydalanish mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston mintaqalarida inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3-jadval

**O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning ayrim ko'rsatkichlari
(2024–2025 yy.)⁴⁴**

Ko'rsatkichlar	Miqdori	Yili
18–23 yoshdagi aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi	47,7 %	2024/2025 o'quv yili
Oliy ta'lim muassasalari soni	211 ta	2024-yil
Oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabalar soni	1,16 mln nafardan ortiq	2024/2025 o'quv yili
Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni	661,8 ming nafar	2023/2024 o'quv yili
Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi	44 %	2024-yil
Nodavlat umumta'lim muassasalari soni	293 ta	2023/2024 o'quv yili
Internet foydalanuvchilari ulushi (aholi orasida)	77 % dan ortiq	2024-yil

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganligini ko'rsatadi. Xususan, 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 47,7 foizga yetgani inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi, ilmiy salohiyatning oshishi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi mintaqalarda innovatsion iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda inson kapitalidan samarali foydalanish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirish, raqamlashtirish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning asosiy strategik resursiga aylanmoqda. Endilikda iqtisodiy o'sish darajasi nafaqat tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan, balki insonlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, innovatsion salohiyati va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari bilan ham belgilanmoqda.

Tadqiqot davomida inson kapitalining tarkibiy omillari — ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, kasbiy tayyorgarlik, ilmiy salohiyat va raqamli kompetensiyalar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, yuqori malakali va kreativ fikrlovchi inson resurslari mavjud bo'lgan hududlarda mehnat unumdorligi, investitsion jozibadorlik va innovatsion faollikning yuqori darajada shakllanishi kuzatiladi. Bu esa inson kapitalining hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, maqolada rivojlangan davlatlar tajribasi asosida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim qamrovining ortishi, kasbiy ta'lim tizimining takomillashuvi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining kengayishi va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasida ta'lim sifati va bandlik darajasi bo'yicha tafovutlarning mavjudligi, zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar yetishmovchiligi hamda ilmiy salohiyatdan foydalanish samaradorligining pastligi kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mintaqalarda inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish

uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

ta'lim tizimini hududlar kesimida yanada takomillashtirish va sifat ko'rsatkichlarini oshirish;

mehnat bozori talablariga mos zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish;

raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

ilm-fan va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish; hududlarda sog'liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilma sifatini yaxshilash;

yoshlar bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Inson kapitali mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga aholi farovonligini yuksaltirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo'yicha kompleks iqtisodiy siyosat yuritish mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Dinora Yusubboyeva iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) / Динора Юсуббоева доктор философии (PhD) по экономическим наукам / Dinora Yusubboyeva Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
E-mail: dinorayusubboyeva@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6058-7208>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 390 p.
3. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51. – No. 1. – P. 1–17.
4. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
5. Mankiw N.G. Principles of Economics. – 8th edition. – Boston: Cengage Learning, 2018. – 888 p.
6. Abdurahmonov Q.X. Inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 256 b.
7. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Nabiye E.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 312 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
9. Jahon banki hisobotlari: Human Capital Development Reports. – Washington DC, 2023.



10. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP)ning inson rivojlanishi bo'yicha hisobotlari. – New York, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari.
12. Stat.uz rasmiy sayti
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.
14. Edu.uz rasmiy sayti



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz